



UDK: 811.512.133

ORCID: 0000-0003-0244-7642

TERMINOLOGIYANING STRUKTUR TASNIFI

Mirxanova Gulandom Rustamovna

dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Buxoro davlat pedagogika instituti. guli89mirxan@gmail.com

Annotatsiya. Terminologiya tadqiqiga kognitiv yondashuv zarurati haqida so‘z borar ekan, bunday tadqiqotlar nafaqat ilm fan rivojini kuzatish uchun, balki insoniyat madaniyati, butun boshli tamaddun taraqqiyotini o‘rganish uchun dolzarb ekanini ta’kidlash joiz. Bugungi kunda fan-texnika sohalari izchil rivojlanmoqda, har jabhada yangiliklar jadallik bilan hayotimizga kirib kelmoqda, shunday ekan, terminologiya tadqiqiga antropotsentrik nuqtayi nazardan kognitiv-konseptual yondashuv zarurati tobora ortmoqda. Maqolada kognitiv yondashuv orqali terminlarning semantik tuzilishi, ularning konseptual asoslari va inson tafakkuridagi o‘rni chuqur tahlil qilinishi, bu esa fanlararo tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi masalalari tadqiq qilingan. Termin tizimlarini o‘rganishda kognitiv-konseptual yondashuvdan foydalanish ilm-fan va texnologiyalar taraqqiyotini yanada chuqurroq anglash, ilmiy tafakkurning rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda madaniy-milliy o‘ziga xoslikni aks ettirish imkonini berishi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: terminshunoslik, leksik sath, konseptual yondashuv, lakuna, realiya termin, kognitiv yondashuv, semantik qatlam, terminosfera.

СТРУКТУРНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ТЕРМИНОЛОГИИ

Аннотация. Говоря о необходимости когнитивного подхода к изучению терминологии, следует отметить, что подобные исследования актуальны не только для мониторинга развития науки, но и для изучения развития человеческой культуры и цивилизации в целом. Сегодня области науки и техники постоянно развиваются, инновации во всех аспектах стремительно входят в нашу жизнь, поэтому все больше возрастает потребность в когнитивно-понятийном подходе к изучению терминологии с антропоцентрической точки зрения. В статье семантическая структура терминов, их концептуальные основы и место в мышлении человека глубоко анализируются посредством когнитивного подхода, что служит повышению эффективности междисциплинарных исследований. Обсуждалось, что использование когнитивно-

понятийного подхода при изучении терминосистем позволяет глубже понять прогресс науки и техники, выявить этапы развития научного мышления, отражения культурной и национальной идентичности.

Ключевые слова: терминология, лексический уровень, концептуальный подход, лакуна, реалистический термин, когнитивный подход, семантический слой, терминосфера.

STRUCTURAL CLASSIFICATION OF TERMINOLOGY

Abstract. Speaking about the need for a cognitive approach to the study of terminology, it is worth noting that such studies are relevant not only for monitoring the development of science, but also for studying the development of human culture and civilization as a whole. Today, scientific and technical fields are developing steadily, innovations are rapidly entering our lives on all fronts, so the need for a cognitive-conceptual approach to the study of terminology from an anthropocentric point of view is increasingly increasing. The article examines the issues of in-depth analysis of the semantic structure of terms, their conceptual foundations and their role in human thinking through a cognitive approach, which serves to increase the effectiveness of interdisciplinary research. It is discussed that the use of a cognitive-conceptual approach in the study of term systems allows for a deeper understanding of the development of science and technology, the identification of stages of development of scientific thinking, and the reflection of cultural and national identity.

Key words: terminology, lexical level, conceptual approach, lacuna, reality term, cognitive approach, semantic layer, terminosphere.

KIRISH. Terminologiya tadqiqiga kognitiv-konseptual yondashuv haqida so‘z borar ekan, bu tamoyil termini faqat predmet va hodisani tavsiflovchi leksema sifatida emas, muayyan fan nazariyasi, soha amaliyotining ajralmas bir bo‘lagi deb tahlil qilish imkoni tug‘iladi. Kognitiv prizmada terminshunoslik murakkab semantik, lingvomadaniy va diskursiv xususiyatlarga ega fenomen sifatida namoyon bo‘ladi. Shu asnoda har bir terminning ichki semantik strukturasi, aniq xususiyatlarini tadqiq etish mumkin. Shu asnoda kognitiv yondashuvning asosiy maqsadi ya’ni termin misolida insonning borliqqa munosabati, borliqni anglash mexanizmlarini o‘rganish imkoni tug‘iladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. “Kognitiv yondashuvga asosan terminologiya muayyan mutaxassisning, fan vakillarining kognitiv faoliyati mahsuli deb qaraladi. Ularning kognitiv faoliyati mavjud professional bilimlarni konseptuallashtirish va verbal shaklga ko‘chirishdan iborat bo‘lgan” deyiladi bir xulosada. Ilmiy faoliyat nafaqat obyektiv jarayonlardan iborat, balki subyektiv fikrlar ta’siri ostida ham bo‘ladi. Bu faoliyatda yangilikka intilish ruhi konservativ yondashuvga qarshi turadi. Ziddiyat esa shu ilmiy faoliyatni olib boruvchi olimlar tomonidan yuzaga keltiriladi. Fan tarmoqlarini butunlay o‘zgartirib yuborishga qodir subyektiv omil sohadagi terminlar yaralishida ham, albatta, sezilarli rol

o‘ynaydi. Terminlarning qo‘llanish ko‘lamiga ko‘ra universal, unikal va bir shaxs tomonidan yaratilgan tor doirada xoslangan turlarga bo‘linishi haqidagi ma’lumotlar olimlar tomonidan ishlab chiqilgan. Agar tarkibdagi elementlar soniga qarasak, oxirgi guruh eng kichik tarkib bilan quyi pog‘onada bo‘lishi lozim. Biroq aynan kognitiv-konseptual yondashuvda mana shu tor doira elementlar pirovard tadqiq obyektiga aylanadi. Chunki bir shaxs tomonidan yaratilgan tor doirada xoslangan terminlarda subyektiv iz yaqqol, bu terminlar hali fanda o‘z o‘rniga ega bo‘lmagan – ya’ni obyektivlashmagan. Shunday ekan, bir shaxs tomonidan yaratilgan tor doirada xoslangan terminlar kognitiv tadqiqda yaxshi material bo‘la oladi. Kognitiv yondashuv terminlar tavsifiga konseptuallikni talab qiladi, ya’ni bunda termin konsept sifatida izohlanishi kerak. Har bir element kognitiv strukturasi, tizimdagi o‘rni yaqqol ko‘rsatib berilishi shart.

Agar tadqiqotlarda kognitiv yondashuv pirovard o‘ringa chiqsa, masala faqatgina termin funksiyasi va semantikasini o‘rganish bilan cheklanmaydi. Zotan konseptual tavsif terminning professional faoliyatdagi, ilmiy ongda, bilimlar tizimidagi o‘rnini ham belgilashga qaratiladi. Bunda termin tavsifiga freym, konsept va dunyoning lisoniy manzarasi prizmasidan qaraladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ma’lumki, ilm-fan terminlari barcha tillar uchun umumiy semantik element hisoblanadi, terminlar muayyan tildan o‘zlashtirilishi (masalan: *telekommunikatsiya, parlament, impichment, deputat, mexanizatsiya, onlayn, menejer*) yoki o‘zbek tiliga mazmunan moslashtirilishi, tarjima qilinishi mumkin (*direktor – boshliq, CEO – rais, council – elchi*). Terminlar shaklan turli tillarda farqlansa-da mazmunan bir yaxlit bo‘ladi, ya’ni barcha tillarda bir xil terminologik ma’no mavjud deyish mumkinmi? Konseptual yondashuv mana shu savolga javob shakllantirishda ham qo‘l keladi. Til materialiga kognitiv yondashuv konseptlarni uch turga bo‘lishni tavsiya qiladi. Birinchi tur so‘zlar umumbashariy lisoniy manzarani tashkil qilib insoniyat uchun bir xil ma’no kasb etadi. Ikkinchi tur so‘zlar muayyan tilda so‘zlashuvchilarning madaniyati, mentaliteti, hayot tajribasini aks ettirib boshqa tillarda uchramaydi. Bunday konseptlar milliy realiya sifatida qaralib, boshqa tillarga tarjima jarayonida ham lakuna deb baholanadi. Ya’ni boshqa tilda muqobili yo‘q bo‘lgan tushunchani ifodalaydigan mazmuniy qolip mavjud bo‘lmaganidan tarjima zarurati tug‘ilganda transliteratsiya qilinadi. Uchinchi tur leksemalar faqat bir inson tajribasi natijasida yuzaga keladi, mazmunan faqat shu insonning shaxsiy lisoniy manzarasiga muvofiq bo‘ladi. Xo‘sh, bir qarashda barcha tillar uchun universalidek ko‘ringan terminlarni ham mana shu tarzda tasniflash mumkinmi? Terminda milliy tilga xoslanganlik alomatlari bo‘lishi mumkinmi? Quyida umumbashariy lisoniy manzaradan universalidek sifatida o‘rin olgan terminlarni ko‘zdan kechiramiz:

Amaliy jabhadagi terminlar: prezident, deputat, mikrobiologiya, sud, element, Konstitutsiya, menejer – ish boshqaruvchi.

Nazariy jabhadagi terminlar: hujayra, metodologiya, stratosfera, to‘qima, Somon yo‘li, rif – qoyatosh.

Anglashilganidek, ushbu terminlarning ayrimlari aynan o‘zidek, tovush tarkibi biroz o‘zgargan holda, ba’zilari esa milliy tilga moslashtirilgan shaklda qabul qilingan. O‘zbek tilida

shu tushuncha mavjudligi, milliy lisoniy kartinamizda shunga muqobil tushuncha borligi sabab uni muayyan shaklda moslashtirish jarayoni osonlashadi. Agar bunday tushuncha mavjud bo‘lmasa xalqaro standartga muvofiq termin o‘zlashadi, milliy til fonetik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda transliteratsiya qilinadi. Shunga qaramay, publitsistik uslubda yoki og‘zaki nutqda ayrim terminlar mazmunan boshqa istilohlar bilan almashtirilishini ko‘ramiz: *prezident* – *yurtboshi*, *konstitutsiya* – *qomus*, *advokat* – *huquqbon*, *sud* – *mahkama*, *kosmonavt* – *fazogir*, *samolyot* – *uchoq*, *okean* – *ummon* va h.k.

Faqat o‘zbek tilida uchraydigan, bir til yoki yagona tillar oilasiga mansub terminlar o‘z navbatida milliy lisoniy manzara terminologiyasi deb e‘tirof etilishi mumkin. Bu terminlar faqat bir til, katta elat, muayyan hududda yashovchi xalqlar uchun tushunarli, ularning turmush tarzi va mentalitetining bir bo‘lagi. Ushbu terminlarni tarjima qilish imkonsiz. Boshqa tillarda ularni realiya sifatida, zarurat bo‘lsa izoh bilan qo‘llash mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi *mahalla*, *kurash*, *ko‘pkari* kabi leksemalarni mana shunday realiya termin deb atash mumkin.

Yuqoridagi mulohazalar va tamal fikrlardan kelib chiqib ayrim terminlarning konseptual tahliliga o‘tamiz. Masalan:

ENERGIYA	
Etimologiya:	Qadimgi yunon tilidagi ἐνέργεια so‘zi o‘zbek tiliga rus tili vositasida o‘zlashgan.
Dastlabki izoh:	Qadimgi yunon tilida harakat, aktivlik yoki faoliyat ma’nolarini anglatadi
Dastlabki qo‘llanishi:	Aristotel energiya istilohini aktuallashgan potensial deb imkoniyat – dynamis terminiga qarama-qarshi qo‘yadi.
Hozirgi ma’nosi	Muayyan ish-harakatni amalga oshirish, o‘zgarish qilishga yoki ma’lum bir jarayonda davom etishga qodirlik.
Terminning qo‘llanish doirasi	
Fizika	Muayyan tizimning faoliyat yuritishga qodirligini namoyon qiluvchi asosiy o‘lchov birligi. Fizik energiya doim saqlanib qolishi, hech qayerga yo‘q bo‘lmasligi va yo‘q joydan paydo bo‘lmasligi – bir shakldan boshqasiga o‘tishi tasdiqlangan
	Kinetik energiya (harakat energiyasi)
	Potensial energiya (energiya imkoniyati)
	Issiqlik energiyasi (harorat bilan bog‘liq)
	Elektromagnit energiya (yorug‘lik, radioto‘lqin)
	Yadro energiyasi (atom yadrosi tarkibidagi energiya)

Biologiya	Biologik energiya organizmlarning tiriklik asosi hisoblanadi. Energiya ozuqa va uyqudan hosil bo‘lib, kimyoviy energiya (ATF)ga aylanadi va organizmdagi turli jarayonlarda, xususan, metabolic jarayonda sarflanadi.
Ruhiyat	Ruhiyat masalalari tavsifida energiya ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Xususan, psixologik energiya psixologik jarayonlarni harakatga keltiruvchi kuch. Ruh (e’tiqodiy) energiya hayotni davom ettirish uchun rag‘bat, ilhom va motivatsiya kuchi. (Sharq madaniyatida Tsi, Prana kabi hayotiy energiya turlari mavjud bo‘lib, inson bu energiyaga meditatsiya vositasida yetishi ta’kidlanadi.)
Iqtisodiyot	Iqtisodiyotda energiya jamiyatni harakatga keltiruvchi resurs: pul, moliyaviy stabillic.

Demak, energiya istilohi o‘zining dastlabki lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashgan. Ushbu termin turli fan tarmoqlarini birlashtirib turadi va fanlar, faoliyat turlari energiya manbasi, ushbu energiyaning nimaga sarflanishiga ko‘ra, hosil bo‘lish jarayoniga farqlanadi. Yana bir ko‘p tarmoqli termin tahliliga quyida e’tiborimizni qaratamiz:

MORFOLOGIYA	
Etimologiya:	Termin qadimgi yunon tilidagi μορφή (morphé – «shakl») va λόγος (logos – «ta’limot») shaklidan rus tili vositasida o‘zbek tiliga o‘zlashgan.
Dastlabki izoh:	Qadimgi yunon tilida obyekt shakliy tarkibini o‘rganuvchi fan bo‘limlari.
Dastlabki qo‘llanishi:	Dastlab biologiyada qo‘llanib, 1859-yilda tilshunoslikda o‘zlashtirilgan.
Hozirgi ma’nosi	Obyektning strukturasi, shakli va shakliy o‘zgarishlaridagi qonuniyatlarini o‘rganuvchi bo‘lim.
Terminning qo‘llanish doirasi	
Biologiya	Biologiyada morfologiya organizmlarning tashqi va ichki qurilishini o‘rganadi va quyidagi turlarga bo‘linadi: Anatomik morfologiya (organlar va to‘qimalar qurilishi) Funksional morfologiya (shakl va vazifa bog‘liqligi) Evolutsion morfologiya (shakllarning evolyutsiya davomida o‘zgarishi).
Geologiya va geografiya	Geografiya va geologiyada morfologiya, ya’ni geomorfologiya yer yuzasining shakllari, ularning kelib chiqishi va rivojlanishini o‘rganadi. Geomorfologiyaning tadqiq obyektlari quyidagicha: relyef tahlili (tog‘, vodi, adirlik); tektonik jarayonlarning yer sathiga ta’siri (eroziya, zilzila, vulqon otilishi).

Lingvistika:	Tilshunoslikda morfologiya grammatikaning bir bo‘limi sifatida so‘z va uning qurilishi (o‘zak, qo‘shimcha – suffiks, affiks)ni o‘rganadi; so‘z yasalishi usullari (affiksatsiya, konversiya, qo‘shma so‘z)ni tahlil qiladi; so‘z shakllari va ulardagi o‘zgarishlar (turlanish, tuslanish)ni o‘rganadi.
San‘at:	tasviriy, kino va musiqa asarlarining struktur elementlarini tadqiq qiladi.
Adabiyot:	Adabiyot morfologiyasi badiiy matn strukturasi o‘rganadi.
Shaharsozlik:	Shahar morfologiyasida uning hududlari tarkibi, qanday qismlarga bo‘linganligi, infrastruktura obyektlari o‘rganiladi.

Yuqorilaridan kelib chiqib morfologiya istilohiga bunday izoh berish mumkin: morfologiya fanning turli tarmoqlarida obyekt shakli, struktur tarkibini o‘rganuvchi bo‘lim. Ushbu bo‘lim muayyan obyektning shakliy-struktur o‘zgarishlaridagi qonuniyatlarni ochib berishni maqsad qiladi. Bu termin ham xuddi *energiya* kabi aniq, tabiiy va gumanitar fanlar doirasida qo‘llanaveradi.

XULOSA. Mana shunday batafsil izohlar, tizimli yondashuv natijasida qisqa lo‘nda konseptual tavsiflar shakllanadi. Etimologiya haqidagi ma‘lumot muayyan terminning asl fonetik qolipini ko‘rsatib o‘zbek tilida qabul qilingan transliteratsiya shakli bilan qiyoslash imkonini beradi. Asnoda o‘zbek tilida terminlar transliteratsiyasi mexanizmlari yaqqollashib, qonuniyatlar yuzaga chiqa boshlaydi. Dastlabki ma‘no izohi bilan hozir aktual ma‘no izohini yonma-yon qo‘yganda leksema lug‘aviy ma‘nosida semantik siljish bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi ayon bo‘ladi. Fan tarmoqlari doirasidagi tasnif esa bir terminning qo‘llanish ko‘lamini aniqlash, unda kontekstual ma‘no imkoniyatlari qay darajada ekanini bilish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гринев С. Теория языка. Антрополилингвистика: учебное пособие / Л.Г. Викулова; Гриневич С.В. Гринев. – Москва: ВКН, 2021. – 257 с. – ISBN 978-5-7873-1773-2. – URL: <https://rucont.ru/efd/836966> (Grinev S. The theory is written. Anthropolinguistics: training manual / L.G. Vikulova; Grinevich S.V. Grinev. – Moscow: VKN, 2021. – 257 p.)
2. Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – T., 2019. – 118 b. (Dadabaev H. Uzbek terminology. – T., 2019. – 118 p.)
3. Дадабаев Х. Лексико-генетические особенности узбекской терминологии. Лингвист. Илмий маколалар туплами – Тошкент, 2015. – С. 4-10. (Dadabaev H. Lexico-genetic peculiarities of Uzbek terminology. Linguist. Collection of scientific articles – Tashkent, 2015. – P.4-10.)
4. Даниленко В. Об основных лингвистических требованиях к стандартизируемым терминам// Семиотические проблемы языков науки, терминологии

и информатики. – М.: МГУ, 1971. – pp. 9 (Danilenko V. Basic linguistic requirements and standardized terms// Semiotic problems of language science, terminology and informatics. – М.: MGU, 1971. – pp. 9)

5. Реформатский А. Мысли о терминологии / Современные проблемы русской терминологии. – М.: 1966. – 297 с. (Reformatsky A. Thoughts on terminology/Modern problems of Russian terminology. – М.: 1966. – 297 p.)

6. Циткина Ф. Терминология и перевод. // К основам сопоставительного терминоведения. – Львов: 1988. – 213 с. (Sitkina F. Terminology and translation. // Towards the foundations of comparative terminology. – Lvov: 1988. – 213 p.)